

SIRDARYO VILOYATI SUV MANBALARI VA UNDA FOYDALANISHNING AHVOLI

Payziyeva Madina Ulug'bek qizi

payziyevamadina12@gmail.com

Djalilova Shahnoza Ziyodulla qizi

shahnozziyodullayevna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192690>

Sirdaryo viloyatining asosiy suv resurslariga 1 ta daryo (Sirdaryoning o'rta oqim havzasi), 2 kanal (Shimoliy Mirzacho'l yoki Do'stlik kanali va Janubiy Mirzacho'l kanali hamda ularning tarmoqlari) va 1 suv ombori (Sardoba suv ombori) kabilar kiritiladi. Foydalanilayotgan suv resurslarining o'rtacha hajmi yillik taxminan 3700 milliard m³ ni tashkil qiladi.

Viloyatning suv resurslarini iqtisodiy tahlilini va iqtisodiyotdagi o'rnini tavsiflayotganda Sirdaryo viloyatining hududi bo'yicha emas, balki Jizzax va Sirdaryo viloyatlari suv resurslari birgalikda umumiy tahlil etiladi va ularga umumiy mintqa suv resurslari sifatida yondoshiladi. Shu sababli Respublika miqyosida ham, sirdaryoning o'rta mintaqasi jihatidan ham, iqtisodiy rayonlar jihatidan ham bu ikkala viloyat suv resurslari birgalikda o'rganiladi.

Sirdaryo viloyati hududidagi asosiy irrigatsiya kanallari

No	Nomlanishi	Suv sarfi. m ³ /s	Sug'oradigan maydoni (ming, ga)	Janubiy Mirzacho'l kanali (Sirdaryo vil.da)-92,3km, (Jizzax vil.da)-31,4km	Ishga tushirilgan yili	Uzunligi (km)
1.	Janubiy Mirzacho'l kanali	350	398,0	(Sirdaryo vil.da) - 159 ga (Jizzax vil.da) 239ga	1948	123,7
2.	Do'stlik kanali	220—230	236,0	Toshkent viloyati Bekobod tumani, Sirdaryo vil.	1948	117,0
3.	Do'stlik kanali (O'zbekiston)		100,00	Guliston, Sayxunobod. Sirdaryo		68
4.	Sirdaryoning O'zbekistondan o'tgan qismi	oqib	15,50			

Masalan, respublikada suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ham umumiy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Masalan, oxirgi uch yil mobaynida irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida Jizzax va Sirdaryo

viloyatlarida 170,4 km irrigatsiya tizimlari kanallari, 145,2 km lotok tarmoqlari, 33 ta gidrotexnik inshootlar, 734 km kollektor-drenaj tarmoqlari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Natijada 104 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 15,6 ming gektarga kamaydi, sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan maydonlar 28,6 ming gektarga qisqardi, 85 ming gektardan ortiq maydonning meliorativ holatini barqaror saqlashga erishildi¹. Viloyat suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi bo'yicha Respublikada birinchi o'rinda turadi. Viloyat nafaqat sug'orish suvlari balki chuchuk suvlar bilan ham yaxshi ta'minlangan.

Sirdaryo viloyati chuchuk iste'mol suvlari zahirasi 1999 yilgi ma'lumotga ko'ra 4,4 mln m kubni tashkil etadi. Ushbu resurslar hosil bolish havzalariga ko'ra 2 ta asosiy mintaqaga kiradi. Bular Mirzacho'l mintaqasi va Nurota-Turkiston mintaqalaridir. 2020 yilda Sirdaryo viloyatida Energetika sohasini rivojlantirish uchun Xitoy davlati bilan hamkorlikda quyidagi loyiha amalga oshirilgan. Loyiha hududi atrofida 1972-1981 yillarda ishga tushirilgan 10 ta energoblokga (umumiy quvvati 3065 MW) ega tabiiy gaz va yoqilg'i moyi (mazut)da ishlaydigan Sirdaryo Issiqlik Elektr Stansiyasiga (IES) yaqin joylashgan. Energetika Vazirligining 2020-yil 5-iyundagi rasmiy xabariga ko'ra, mavjud Sirdaryo IESning 4 ta energiya bloki 2023-dan 2024-yilgacha bo'lgan davrda ekspluatatsiyadan chiqariladi. Shunday qilib, jami 1830 MVt quvvatga ega bo'lgan qolgan 6 ta yangilangan energiya bloklari tabiiy gaz bilan ekspluatatsiya holatida qolishi taxmin qilinmoqda. Obyektiv baholashni ta'minlash maqsadida ushbu 6 ta zamonaviy bloklar ham ACWA gaz trubinali IES bilan bir vaqtda faoliyatini davom ettirishi taklif etildi.

Ushbu Loyiha 1500 MVt quvvatga ega bo'lgan tabiiy gaz yoqilg'isi asosida bug'-gaz qurilmali mustaqil elektrstantsiya bo'lib, kelajakda qo'shni hududda rejalashtirilgan bug'-gaz qurilmali elektrstantsiya (XMK tenderi asosida) loyihasi bilan birgalikda elektr energiyasini umumiy taqsimlash qurilmasi orqali tarmoqqa uzatadi.

Loyiha Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan Shirin shahridan taxminan 1,9 km shimoli-sharqda joylashgan. Yashil maydon uchastkasi Tojikiston chegarasida joylashgan 3000 MVt quvvatiga ega bo'lgan mavjud mazut-gaz issiqlik elektr stansiyasi (Sirdaryo IES) ga yaqin joylashgan. Loyihaning tahminiy hududi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.

Loyiha yaqin Janubiy Mirzacho'l (JM) Kanalidan suv olishni amalga oshiradi. Kanal Bekobod gidrometriyasidan bir necha kilometr narida Sirdaryo daryosidan suv oladi. Loyihaning maydoni asosan dalalar orqali o'tadigan sug'orish kanallari orqali o'tadi.

So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida barpo etilgan suv ombori. 2017-yil Janubiy Mirzacho'l kanalining markaziy tarmog'i oqib o'tgan hududda qurilgan. Suv sig'imi 930 million m³, balandligi 28,8 m. Suv omborining qurilishi 2010-yil boshlanib, 2017-yil yakunlandi. Uni qurishdan maqsad Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining unumdor yerlaridan foydalanib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish bo'lgan. Suv ombori atrofida dam olish hududi tashkil etilishi ko'zda tutilgan



Sardoba suv omborining qiymati 1,3 trillion so'm (404 million AQSh dollari)ni tashkil etdi².

Berilgan rasmiy ma'lumotga ko'ra "Sardoba" suv ombori to'g'onidan suv toshishi oqibatida Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi aksariyat suv xo'jaligi obyektlari, shuningdek, "Markaziy Mirzacho'l" kollektori va unga quyuluvchi kollektorlar jiddiy talafot ko'rgan(9-rasm)³. Sardoba toshqini hududning rel'eyfiga bog'liq holda qisqa muddatda juda katta hududni egallab olgan va katta iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy zararlarni yuzaga keltirgan. Toshqin hududi Qozog'istonning ham katta hududini qamrab olgan va asosan shu mamlakat

hududida chuqur vaqtincha suv havzasini hosil qilgan. Sirdaryo viloyatida toshqin oqibatlarini bartaraf etish byudjetga kamida 1,5 trillion so'm zarar yetkazgan.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4801-son qaroriga Respublika darajasida viloyatning suv resurslarini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishga katta e'tibor qaratilgan.

REFERENCES

1. Amirov L.F. Transchegaraviy suv resurslardan foydalanishni boshqarishning dolzarb masalalari. G'G' Iktisodiyot va ta'lim - T.: 2017. № 2, - B. 148-151.
2. Hikmatov F., Aytbaev D. O'zbekistan yer osti suvlari. Ekologiya xabarnomasi. - T.: 2007. -№3. - B.7-10.;
3. Muhammad Mizanur. Central Asian waters. -Helsinki, 2008.;
4. Internet saytlari